



FORMATIV BAHOLASH JARAYONIDA 7-SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQINI TEKSHIRISH MAZMUNI VA TARTIBI

G‘aybulloyeva Feruza Bobir qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda o‘quvchilarni og‘zaki nutqini formativ baholashning ahamiyati, mazmuni hamda uni amalga oshirish tartiblari borasida fikr yuritiladi. Shuningdek, og‘zaki nutqning sifatlariga ham qisqacha to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Formativ baholash, nutqiy muhit, rasmiy nutq, norasmiy nutq, nutqiy sifatlar.

Ona tili ta’limida bugungi kunda amalda qo‘llanilayotgan formativ baholash o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun ularni kuzatish va ikkilamchi baholash usulidir. “Formativ baholashdan asosiy maqsad shundan iboratki, o‘qitish va o‘rganishning keyingi bosqichida rahbarlik qilish va o‘quvchining egallagan bilimlarini qay darajada ekanligi haqida o‘qituvchini xabardor qilishdir”.¹ Shu o‘rinda, 7-sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini qay holatda rivojlantirish, uni baholashda qanday formativ baholash usullarining mavjudligi, baholashda yo‘l qo‘yiladigan xatoliklar hamda samaradorlikni ta’minlovchi qator baholash tartiblari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz.

¹ Zoe Benjamen. Formativ baholash nima? –Amaliy qo‘llanma. – Third space Learning .2023



Barchamizga ayonki, til ta'limida 4 ta nutqiy ko'nikma mavjud bo'lib, og'zaki nutq boshqa nutqiy ko'nikmalar bilan chambarchas bog'liqdir. Ya'ni ta'lim oluvchida tinglab tushunish qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, og'zaki nutqi ham shu qadar ravon bo'ladi. Yoshligidan qulog'i tug'ma kar bo'lib dunyoga kelgan yoki eshitishi zaif bo'lgan bolalarda gapirish ko'nikmasi kech rivojlanadi, yoki soqovlik holati yuzaga keladi. Chunki, nutqning rivojlanishi eshitish faoliyatiga bevosita bog'liqdir.² Insonda birinchi birlamchi ko'nikma sifatida tinglab tushunish va gapirish ko'nikmasini ayta olamiz. Bundan tashqari, og'zaki nutq o'qib tushunish nutqiy kompetensiyasi bilan ham bevosita bog'liq tarzda shakllanadi. Ta'lim oluvchi o'qib tushunishga oid matnlarni qanchalik darajada ko'p o'qisa, og'zaki nutqidagi lug'at boyligi, so'z tanlash mahorati, gap qurilishini to'g'ri shakllantirish qobiliyati ham o'z o'zidan takomillashib boradi. Shuningdek, yozma nutqning ham og'zaki nutq bilan aloqador jihatlari mavjud bo'lib, yozma nutq og'zaki nutqning tayyor mexanizmlaridan foydalangan holda uni takomillashtirib va ularni bir qadar murakkablashtirib boradi, tilning yangi ifoda shakllari uchun xos bo'lgan yangi usullarni qo'shadi.³ Xususan, ona tili darslarining sifat va samaradorlik darajasi aynan nutqiy kompetensiyalarning rivojlanishi bilan yuksalib boradi.

Binobarin, og'zaki nutqni rivojlantirish borasida B.To'xliyev va boshqalar hammuallifligidagi "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasida quyidagicha fikr bildiriladi: "Ona tili mashg'ulotlarini nutq san'atini egallash va undan samarali foydalanish bilim, ko'nikma va malakalarni tarbiyalaydi. Shu jarayonda nutqiy madaniyat shakllanadi. Nutq madaniyati yoshlarga kundalik oddiy salomlashishidan kimga?, nimaga?, qachon?, qayerda?, qanday? so'zlashgacha bo'lgan muomala-muloqot sirlarini o'rgatadi; sharqona odob-andisha, go'zal qiroat san'ati qonuniyatlarini anglab borishda ham katta ahamiyat kasb etadi". Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'quvchining amaliy ko'nikmalarini namoyon

² Sheraliyev S. Kar va zaif eshituvchi bolalarda talaffuz ko'nikmasini shakllantirish. Euroasian journal of social sciences, philosophy and culture. December 2022

³ <http://www.azkurs.org/ogzaki-va-yozma-nutqning-oziga-xosligi-ogzaki-nutq.html?page=4>



qiluvchi asosiy omillaridan biri og‘zaki muloqot hamda muomala madaniyatining shakllanganidir. Vaholanki, nutqning ta’sir quvvati, tegishli axborotni tinglovchiga tugal va qulay, yuqumli tarzda yetkazish imkoniyati muhim kommunikativ sifatlardan bo‘lmish so‘z boyligiga bog‘liq.⁴ Yuqorida ta’kidlaganimizdek, so‘z boyligi hamda tugal nutq zaxirasi badiiy hamda publitsistik matnlarni o‘qib tushunish natijasida boyib boradi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Ona tili dars mashg‘uloti davomida o‘quvchilar nutqidagi so‘z boyligini oshirish uchun qanday topshiriqlar yoki rivojlatiruvchi usullardan foydalaniladi? Uni baholashda nimalarga ahamiyat qaratiladi? Bu savollarga javob berish uchun o‘qituvchining darsni tashkillashtirishdagi mahoratiga e’tibor qaratish zarur. Sababi shundaki, nutqiy muhitni faqatgina o‘qituvchi tashkillashtira oladi. O‘quvchi nutqini yuzga chiqaruvchi quyidagi shartlar mavjud:

- Nutqni yuzaga chiqarish uchun talab bo‘lishi kerak, ya’ni nutqiy vaziyatni yaratish lozim;
- Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi kerak;
- Nutqni til vositasida qurollantirish zarur.

Umuman olganda, og‘zaki nutq bola tug‘ilgandan boshlab eshitish orqali rivojlanib boruvchi ko‘nikma bo‘lib, u boshqalar bilan muloqot qilish, fikr va his-tuyg‘ularimizni ifoda etish imkonini beradi. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini biz rasmiy va norasmiy nutqqa ajratishimiz mumkin. O‘z navbatida, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalanishimiz uchun ehtiyoj tug‘iladi. Xususan K.Mavlonova va boshqalar tomonidan yaratilgan 6-sinf ona tili darsligidagi “Teleboshlovchi bo‘lib qolsam” nutqiy mavzusida rasmiy va norasmiy nutq haqida ma’lumot berilgan, ularni bir-biridan ajratish uchun teleboshlovchi nutqidan olingan ikki xil matn keltirilgan. Quyidagicha matn keltirilgan:

Rasmiy nutq: Dasturimizni hayvonot olamiga oid muhim xabar bilan davom ettiramiz. Yurtimizdagi “Zarafshon” davlat qo‘riqxonasida brakonyerlik faoliyatiga chek

⁴ Mahmudov N. Nutq boyligi// Umumfilologik tadqiqotlar: Muammolar va yechimlar: Tezis shaklidagi maqola. –Jizzax:2011. – 22b.



qo'yildi. Noqonuniy ovchilik faoliyati bilan shug'illangan shaxslar O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan qo'ng'ir ayiqlarni ovlagani aniqlandi. Mazkur holat yuzasidan tuman ichki ishlar bo'limi tomonidan jinoiy ish qo'zg'atilgan.

Noramiy nutq: Xayrli kech, azizlar! Bizda hayvonot olamiga qiziquvchilar uchun ajoyib yangilik bor. Aytishlaricha, "Zarafshon" qo'riqxonasida bir necha juft qor qoplonlari paydo bo'lgan. Katta ehtimol bilan, ular qo'shni davlatlardan mehmon bo'lib kelgan. Ma'lumot uchun aytib o'tay, qor qoplonlari butunlay yo'q bo'lib ketish arafasida turgan yirtqichlardan biri hisoblanadi. Qizil kitobga kiritilgan ushbu hayvon davlat muhofazasida. Ularni ovlash og'ir jinoyat sanaladi.⁵

O'quvchilar yuqoridagi matnni o'qish orqali ikki xil nutq shaklini farqlaydi, matn asosida berilgan og'zaki savol va topshiriqlar orqali mavzuni yanada chuqurroq o'zlashtiradi. Bundan anglashiladiki, rasmiy nutq, ish joylarida, taqdimot himoyalarda yoki biz uchun notanish bo'lgan odamlar bilan suhbat qurganda muhim hisoblanadi. Undan farqli ravishda norasmiy nutq do'stlar va oila a'zolar bilan muloqotga kirishganda faol qo'llanilib, ular his-tuyg'ularini ochiq va ravon ifodalashga xizmat qiladi. Maktab yoshidagi o'quvchilar uchun ushbu nutq turlarini bilish muhim sanaladi. Negaki, o'quvchilar qaysi vaziyatda qanday nutqdan foydalanib gapirishi ularning bilimi va saviyasi qay darajada ekanligini belgilab beradi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, jahon pedagogikasida birinchi bo'lib rus tilshunosligida og'zaki nutq ilmiy muammo sifatida ko'tarilgan, uning ilmiy va metodik jihatdan asoslanishi G.O. Vinokur nomi bilan bog'liqdir. Tadqiqotchi olim nutq madaniyatini rivojlantirish mohiyati, shakllantirish usullari, og'zaki muloqotning jamiyat rivoji uchun ahamiyati borasidagi masalalar yuzasidan ilmiy izlanishlar olib boradi. G.O. Vinokur ta'limotiga ko'ra, "bizning nutqimiz ma'lum qoidalar asosida yuzaga keladi,

⁵ Mavlonova K. va boshqalar. 6-sinf uchun darslik. –Toshkent. Yangi nashr, 2022. -86-87-bet.



nutq soʻzlaganda, grammatik strukturalarni shakl va mazmunga mos ravishda shakllantirish zarur”. Chindan ham, grammatik qoidalarni oʻz oʻrnida toʻgʻri qoʻllamasdan turib, tinglovchiga oʻz fikrimizni ravon va tushunarli tarzda yetkaza olmaymiz. Aslida, har qanday nutq nihoyatda murakkab psixologik va ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ular orasidan ogʻzaki nutq fikrni ifoda etish, his-tuygʻuni anglatish, muayyan maqsad va masalalarni tushuntirish uchun, xususan, oʻz nutqi orqali tinglovchini oʻziga jalb qilish, oʻz xohish istaklarini bildirish, kishilar ongiga taʼsir qilish vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, ogʻzaki nutqning oʻziga xosligi shundaki, ogʻzaki nutq hamma vaqt soʻzlovchiga maʼlum maʼnoda suhbatdosh boʻlgan tinglovchilarga moʻljallanadi. Tinglovchilarning yuz-koʻzida aks etgan hamdardlik, qiziqish yoki eʼtiroz alomatlari orqali ularning soʻzlovchi nutqiga munosabatini bilish bu jonli aloqa soʻzlovchiga mazmunga oʻzgartirish kiritish, ovoz tembri va kuchini oʻylab olish, bu oʻzgarishlar tinglovchilar munosabatiga qanday taʼsir etganini kuzatish imkonini beradi.⁶ Hech bir shaxs fikrini ogʻzaki nutqda ifodalaganchalik aniq, ravon va taʼsirli tarzda ifoda eta olmaydi.

Taʼkidlash joizki, nutqni grammatik jihatdan aniq va toʻgʻri shakllantirish, oʻz fikrini ogʻzaki tarzda erkin va ijodiy tarzda ifodalay olish, nutq madaniyati shakllanllangan notiqalar nutqini kuzatish hamda muloqot jarayonida oʻz fikrini yetkaza olish zaruratdir. Tan olish kerakki, mukammal rivojlangan, izchil ogʻzaki nutq koʻnikmalarini shakllantiruvchi hamda shu asosda uni baholovchi tizimli yondashuv, yoʻnaltiruvchi qoʻllanma, muayyan mashq va topshiriqlar tizimi yetarli daraja deb ayta olmaymiz. Shu davr mobaynida maktab tizimidagi amaldagi darsliklar yuqorida taʼkidlanganidek, asosiy urgʻu oʻquvchilarning lingvistik bilimlarini shakllantirish masalasi biroz ustuvorlik qiladi. Toʻgʻri, nutqimiz grammatik qonun-qoidalar asosida qurilib, fikrimizni toʻgʻri va tushunarli yetkazishimizga yordam beradi. Shu jumladan, R.Rasulov va boshqalar tomonidan tayyorlangan “Nutq

⁶ M.Toshmurodova. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirish usullari. Uzbek scholar Journal. Volume-09,2023.



mahorati” nomli o‘quv qo‘llanmasida aytilishicha, “Grammatik shakllarni o‘z o‘rnida to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llash, ulardan o‘rinli foydalanish nutqimizning ta’sir kuchini oshiradi, uni har xil g‘alizliklardan xalos etadi”.⁷ Lekin, bu degani grammatik qoidalarni to‘liq o‘zlashtirgan kishining og‘zaki nutqi ham ravon va izchil bo‘ladi, degani emas. Grammatik qoidalarni ko‘r-ko‘rona yodlash orqali maqsadga erishishning imkoni yo‘q, qachonki, biz o‘zlashtirayotgan lingvistik bilimlar kontekstda yoki nutqimizda faol qo‘llansagina, og‘zaki va yozma nutqni rivojlanishi uchun imkon yaratiladi. Rus pedagog olimlari K.D Ushinskiy, D.I.Pisarov va boshqalarning ta’kidlashicha, og‘zaki nutqning rivojlanishi va takomillashishida ona tilining roli va ahamiyati nihoyatda kattadir. K.D Ushinskiy bu haqida o‘zining “Ona tili” deb nomlangan maqolasida ham alohida ta’kidlaydi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, og‘zaki va yozma nutqning asosiy xomashyosi bu so‘z boyligidir. Lug‘at boyligi va leksik-grammatik qonun-qoidalar nutq faoliyatining asosini tashkil etgan o‘qib tushunish ko‘nikmasini matn orqali rivojlantirish, o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirib borish orqali ularda og‘zaki nutq madaniyati shakllanadi. “Ona tilini ma’lum darajada o‘zlashtirishimiz nazariy qonun-qoidalarni yodlashimizga qarab emas, balki o‘zlashtirayotgan qoidalarni anglashimiz, anglashilgan bilimlarni og‘zaki va yozma nutqda ishlata olishimiz hamda lug‘at boyligimiz, ularning ma’no-mazmunini bilishimizga qarab izohlanadi”.⁸

M.Z.Hamdamonaning o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida, og‘zaki nutq 3 turga bo‘linishi haqida yozadi. Bular:

1. So‘zlashuv nutqi
2. Ma’ruza nutqi

⁷ R.Rasulov va boshqalar. Nutq mahorati. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent –2006. 138b.

⁸ H.Ergasheva, 2023. Ona tili ta’limida gnoseologik yondashuv orqali yozma nutqni takomillashtirish. – Til va adabiyot jurnali, 14-son, Toshkent.



3. Notiqlik nutqi⁹

Bulardan faqatgina soʻzlashuv nutqida ogʻzaki nutq madaniyatining barcha koʻrinishlarini oʻzida namoyon etadi hamda umumtaʼlim maktab oʻquvchilari uchun mos keladi. Olimaning ilmiy ishida boshlangʻich sinf oʻquvchilarning ogʻzaki nutqi borasida tajriba-sinov ishlarini olib borar ekan, maktablarda nutq oʻstirish maʼlum bir tizim asosida olib borilmayotganini alohida taʼkidlab oʻtadi. Uning fikricha, oʻquvchilarning ogʻzaki nutqini oʻstirishni nimadan boshlash, qanday davom ettirish va yakunlashgacha boʻlgan bitta yaxlit tizim tashkil qilish lozimligini aytib oʻtadi.

Ogʻzaki nutqning rivojlanishi borasida tadqiqotchi olim N.Abidovanning fikriga koʻra, bir tomondan tafakkur va psixik jarayonlarning rivoji, boshqa tomondan esa, nutqning barcha komponentlari – fonetik-fonematik va leksik-grammatik qurilishning rivoji bilan uzviy bogʻliq.¹⁰

Ogʻzaki nutqni formativ baholaganda, asosan monologik nutqni oladigan boʻlsak, nutqning quyidagi sifatlariga eʼtibor qaratish lozim:

a) ogʻzaki nutqning tugalligi. Bunda oʻquvchining mavzudan chetlashmagan holda, toʻliq savolni qamrab olgan holda, berilgan fikrni muhokama asosida dallillab gapirishi lozim boʻladi. Tajriba tahlili yuzasidan shuni ayta olamizki, koʻpchilik 7-sinf oʻquvchilarining nutqidagi markaziy muammo ham aynan shu masala atrofida birlashgan. Yaʼni mavzuga aloqador boʻlmagan fikrlarning bildirilishi, oʻrinsiz va asossiz xulosalarni keltirib chiqargan.

b) ogʻzaki nutqning asosililigi. Asosli nutq deyilganda, fikrni hayotiy dalillar bilan, oʻz hayotidan misollar keltirish orqali nutq soʻzlash koʻnikmasiga aytiladi. Bundan tashqari

⁹ 1-2 sinf oʻquvchilarining ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirish tizimi. Dissertatsiya. –Toshkent. –1998.171b.

¹⁰ N.Abidova. Koʻrishda nuqsoni boʻlgan bolalar ogʻzaki nutqida kamchiliklarni bartaraf etish texnologiyasi. Dissertatsiya. – Toshkent – 2018. 264b.



fikrlar aniq faktlar bilan ham dallillansa, nutq har tomonlama tushunarli bo‘lib, tinglovchiga aniq yetkaziladi. Uning fikrimizni tushunishi hamda tasavvur qilishi uchun qulay vaziyat yaratiladi.

c) og‘zaki nutqning izchilligi. Ko‘pchilik o‘quvchilar nafaqat 7-sinf, balki barcha yoshdagi maktab o‘quvchilari nutq so‘zlaganda, uni qismlab, ya’ni kirish, asosiy qism, xulosa kabilarga bo‘lib gapirish tartibiga rioya qilmay, fikr izchilligini buzib nutq so‘zlashadi. Asosan, monologik nutq so‘zlanganda, fikr izchilligini ta’minlovchi asosiy qurilma, kirish, asosiy qism hamda xulosaviy mulohazadan tashkil topgan bo‘ladi.

d) og‘zaki nutqning mantiqiyliigi. Fikr bayon qilingan chog‘da, gapni mantiqiyliigi ta’minlash uchun berilgan savol nuqtai nazaridan chetga chiqmagan holda, takrorlardan xoli nutq so‘zlash lozimdir. Tilimizning leksik hamda semantik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, omonim, sinonim, antonimlarni faol qo‘llab nutq hosil qilinsa, fikr mantiqiyliigini oshiradi.

e) og‘zaki nutqning ta’sirliligi. Og‘zaki nutqning ta’sirchanliigini ham ta’minlovchi birliklar tilimizning leksik qatlamlarini xilma-xil qo‘llash bilan ifodalanadi. Xususan, badiiy tasvir vositalaridan maqsadli foydalanish, maqol, matal, hikmatli so‘z hamda iboralardan keng va faol foydalanish nutqimizni ta’sirchanliigi hamda ekspressivliigini oshiradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan indikatorlar orqali og‘zaki nutq tekshirilsa, maqsadga qisman bo‘lsa-da erishilgan bo‘ladi. Ularning ichki mexanizmalari ham ushbu indikatorlar orqali shakllantiriladi, muayyan topshiriq va mashqlar tizimi ham shu asosda tuziladi.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilar nutqini formativ baholash ta’lim oluvchilar og‘zaki nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish hamda gapirish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Formativ baholash tizimi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilib, zaruriy nutq sifatlari aniq belgilansa, qisqa muddatda kutilgan natijaga erishish imkonini beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. H.Ergasheva, 2023. Ona tili ta'limida gnoseologik yondashuv orqali yozma nutqni takomillashtirish. – Til va adabiyot jurnali, 14-son, Toshkent
2. Mahmudov N. Nutq boyligi// Umumfilologik tadqiqotlar: Muammolar va yechimlar: Tezis shaklidagi maqola. –Jizzax:2011. –22b
3. Mavlonova K. va boshqalar. 6-sinf uchun darslik. –Toshkent. Yangi nashr, 2022. -86-87-bet.
4. M.Hamdamova1-2 sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish tizimi. Dissertatsiya. –Toshkent. –1998.171b
- M.Toshmurodova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish usullari. Uzbek scholar Journal. Volume-09,2023
5. N.Abidova. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqida kamchiliklarni bartaraf etish texnologiyasi. Dissertatsiya. –Toshkent – 2018. 264b.
6. R.Rasulov va boshqalar. Nutq mahorati. O'quv qo'llanma. – Toshkent –2006. 138b.
7. Sheraliyev S. Kar va zaif eshituvchi bolalarda talaffuz ko'nikmasini shakllantirish. Euroasian journal of social sciences, philosophy and culture. December 2022;
8. Zoe Benjamin. Formativ baholash nima? –Amaliy qo'llanma. – Third space Learning.2023
9. 1-2 sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish tizimi. Dissertatsiya. – Toshkent. –1998.171b.
- 10.<http://www.azkurs.org/ogzaki-va-yozma-nutqning-oziga-xosligi-ogzaki-nutq.html?page=4>